

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN ITLARNI
URCHITISH VA KO‘PAYTIRISH FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN ITLARNI URCHITISH VA KO‘PAYTIRISH FANIDAN MALAKA TEST SINOVİ TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida itlarni urchitish va ko‘paytirish fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Itlarini urchitish va ko‘paytirish

1. Anatomiya va fiziologiya to‘g‘risida tushuncha
2. Erkin harakat tizimi organlari
3. Ovqat hazm qilish tizimi
4. Ko‘paytirish organlari tizimi
5. Xizmat tilarining konstitutsiyasi va ekstereri va zotlari haqida
6. Xizmat tilarini saqlash, ularni parvarish qilish va ozsiqlantirish
7. Xizmat itlarini urchitish va ko‘paytirish

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Anatomiya va fiziologiya to'g'risida tushuncha	Xizmat itlarining organlari va organlar sistemalari qanday tuzilgan va ularning organizmdagi ahamiyati va funksional xususiyatlari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	5 ta
2	Erkin harakat tizimi organlari	Itlarda erkin harakat organlariga noimlar kiradi va ular qanday funksiyalarni bajaradi hamda buni organlarning ahamiyatini bilim va ko'nikmaga ega bo'lish.	5 ta
3	Ovqat hazm qilish tizimi	Ovqat hazm qilish tizimi va ularning hayvonlar uchun ahamiyati ularida ma'lum bir patologik o'zgarishlar yuzaga kelganda itlarning xizmat faoliyatiga ta'sirini o'rganish va patologik shakllarning bor yo'qligini aniqlash usullari haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish.	8 ta
4	Ko'payish organlari tizimi	Ko'payish organlari tizimida urg'ochi itlarning jinsiy a'zolari va tuxumdonlarning anatomo-gistologik tuzilishi. Ovinez ovulyatsiya turlari va sariq tananing morfofunksiyasi. Erkak itlar jinsiy a'zolarining anatomo-fizologik xususiyatlari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	6 ta
5	Xizmat tilarining konstitutsiyasi va ekstereri va zotlari haqida	Xizmat tilarining konstitutsiyasi va ekstereri va zotlari haqida to'liq tushunchalarga ega bo'lish va ushbu bilimlarni xizmat davomida real sharoitda qo'llay bilish va bu haqida bilimlarga ega bo'lish.	4 ta
6	Xizmat itlarini saqlash, ularni parvarish qilish va oziqlantirish	Xizmat itlarini saqlash, ularni parvarish qilish va oziqlantirish haqida mukammal bilimlarga ega bo'lish itlarni qanday sharoitlarda oziqlantirish va ularni saqlash sharoitlarini to'liq bilish va parvarish qilish haqida to'liq bilimlarga ega bo'lishi lozim.	4 ta
7	Xizmat itlarini urchitish va ko'paytirish	Xizmat itlarini nima maqsadda ko'paytiriladi va ularni urchitish uchun qanday sharoitlar hama erkak va urg'ochi itlardan samarali va maqsadli foydalanish to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak	8 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. M.V.Dorosh "It egalari uchun veterinariya spravochnigi" Moskva. 2006 yil.
2. V.V.Moskvin Xizmat itlari asoslari (Osnovi slujebnogo sobakovodstva). Cheboksari 1993 yil.
3. V.N.Zubko Xizmat itchiligi (Slujebnoe sobalovodstva) Moskva 1984 yil.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*